



## DIPLOMATIYA YOZMA NUTQINING YUZAGA KELISHI VA RIVOJLANISHI

**Ahmedova Matluba Ibragimjonovna**

*Farg'ona davlat universiteti, P.f.f.d. (PhD)*

**Nishanova Zilola Askarali qizi**

*Farg'ona Davlat Universiteti, lingvistika (ingliz tili)*

*II bosqich magistranti*

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada diplomatiya termini o'zbek tiliga kirib kelishi, diplomatik yozishmalarning faoliyati, hujjatlar tayyorlashda hamda ularni rasmiylashtirishda qanday qonun-qoidalar doirasiga amal qilishlilik xususiyatlari borasida batafsil yoritilgan.

**Kalit so'zlar:** Diplomatik yozishmalar, terminlar, hujjatlar, diplomatik nutq.

## EMERGENCE AND DEVELOPMENT OF WRITTEN SPEECH OF DIPLOMACY

**Akhmedova Matluba Ibragimjonovna**

*Fergana State University, P.f.f.d. (PhD)*

**Nishanova Zilola Askarali qizi**

*Fergana State University, Linguistics (English)*

*II stage graduate student*

**Abstract:** This article describes in detail the introduction of the term diplomacy into the Uzbek language, the functioning of diplomatic correspondence, and the features of compliance with the framework of laws and regulations in the preparation of documents and their formalization.

**Key words:** Diplomatic correspondence, terms, documents, diplomatic speech.

### KIRISH

Diplomatiya termini XX asrning o'rtalarida rus tili orqali o'zbek tiliga kirib keldi. Manbalarda u quyidagicha ta'riflanadi. «Diplomatiya - Davlatning tashqi xalqaro siyosatini amalga oshirish, chet mamlakatlar bilan aloqa qilish sohasidagi faoliyati»dir.<sup>128</sup>

O'zbek tilining 5 jildlik izohli lug'atida ham ushbu terminning qayd etilgan sharhi aynan keltiriladi. O'zbek tilshunosligida diplomatik nutq yuzasidan olib borilgan tadqiqotlarda diplomatiya tushunchasini ifodalashda, asosan, mazkur ikki lug'atga asoslaniladi. Ayrim manbalarda ushbu tushuncha yuzasidan, yuqorida qayd etilgan ta'rif asosida, kengroq, mukammalroq fikrlar ham bildiriladi<sup>129</sup>.

### ASOSIY QISM

<sup>128</sup> Ўзбек тилининг изоҳли луғати. 1 т. Мағруфова З.М. таҳрири остида. М: Русский язык, 1981, 228-б.

<sup>129</sup> Намраева Ҳ. / О'zbek tilining o'zlashma so'zlar va o'quv izohli lug'ati // – Т. Yangi asr avlodi. 2009. – 119 b.



Diplomatik yozishmalar tashqi ishlar vazirliklari tomonidan shu mamlakatning davlat tilida olib boriladi va biror xalqaro tildagi tarjimasini ilova qilinadi. Elchixonalar ham yozishmalarni o'z davlat tillarida yoki o'zlari turgan mamlakat tilida olib borishlari mumkin. Diplomatik hujjatlarda so'zga e'tibor juda kuchli bo'lmog'i kerak. Ular tili sodda, ravon bo'lib, ko'chma ma'nolardan holi bo'lmog'i, so'z mazmun bilan mutloq mos bo'lishi, undan boshqacha ma'no anglashilmasligi kerak. Agar so'z ma'nosida qandaydir ma'no nozikligi yoki mavhumlik bo'lsa, uni boshqa so'z bilan almashtirilgani ma'qul.<sup>130</sup>

Davlat tilida ish yuritishda diplomatik va yuridik hujjatlarning yangi turlarini (rezyumelar, reklamalar, elektron pochta xabarlarini, nikoh shartnomalari, rasmiy xatlarning yangi turlari), turli rasmiy kommunikativ vaziyatlarda qo'llanuvchi yangi terminlar va atamalar, yangi til modellarini yaratish zaruriyati paydo bo'ldi.

Hujjatlarni tayyorlash, rasmiylashtirishda tilning barcha asosiy qonuniyatlari va qoidalarini ma'lum darajada bilish zarur, shuningdek, tilning imlo qoidalari, tinish belgilari va uslubiy qoidalar ham puxta egallangan bo'lishi kerak. Shu ma'noda, o'zbek milliy yozishmalar tilida ham jiddiy o'rganilishi, amaliy va nazariy tadqiq etilishi lozim bo'lgan ayrim o'rinlar bor.

Diplomatik hujjatlarning shakli, tashqi ko'rinishi qanchalik muhim bo'lmasin, diqqat-e'tibor asosiy qismga, uning mazmuniga qaratilmog'i shart. Fikrni aniq, to'g'ri, mantiqiy izchil, asosli hamda ikkinchi tomonning xususiyatlarini hisobga olgan holda bayon etishi zarur. Ushbu hujjatlarda noaniqlik, dalillarni noto'g'ri ko'rsatish bo'lmasligi shart. Chunki uni keyin to'g'rilab yozish yoki alohida to'g'rilab ma'lumot berish mumkin emas.

Yozma rasmiy diplomatik nutqning tarixi davlatchilik va hujjatchilikning shakllanishi va takomili bilan uzviy bog'liq bo'lib, u yurt egalari nomidan bitilgan qadimiy bitiktoshlar, tarix kitoblari, yorliqlar, buyruq va ko'rsatmalar, xonlar o'rtasidagi rasmiy yozishmalarda tamg'alanib qolgan.

Oltin O'rda xonlari va temuriy sultonlarning buyrug'i bilan bitilgan epigrafik matnlarda, ularning yorliqlarida, suyurg'al bitiglarida, o'zga yurtlarga yo'llagan diplomatik hujjatlarida saqlanib qolgan bo'lib, ushbu yorliq va maktublarning bari xon yoki sultonlar tilidan bitilgan, ya'ni hujjatlar xon va sultonlarning o'z og'zidan yozib olinib, so'ng usta hattotlar tomonidan oqqa ko'chirilgan. Ular yurt egalarining rasmiy kishilarga, davlat idoralariga qaratilgan so'zlari bo'lib, eski o'zbek yozma adabiy tilidagi siyosiy, rasmiy-diplomatik nutqni, rasmiy muloqot madaniyatining lingvokulturologik, etik-estetik o'lchovlarini ifoda etadi. Muhim jihatlaridan biri, ulardagi nutq monologik xarakterga ega bo'lib, u bir kishiga, ya'ni hukmdorga qarashli. Yorliq va maktublarning turi, maqsadiga qarab matnning bayon uslubi, hukmdor nutqi ham farqlanib turadi.

<sup>130</sup> Муҳиддинова Х.С., Абдуллаева Н.А. // Расмий услубнинг дипломатик ёзишмалар тури / Ўқув қўлланма. Тошкент 1997 йил. 4-7 бетлар.



Ish hujjatlari Rossiyada X asrga o'tgandan keyin paydo bo'ldi. Birinchi yozma hujjatlar bu 907, 911, 944 va 971-yillarda yunonlar bilan Rossiya shartnomalarining matnlari Kiev Rusining birinchi qonunlari to'plami "Русская Правда" paydo bo'ldi - bu o'sha paytda huquqiy va ijtimoiy-siyosiy atamalar tizimini rivojlantirishga baho berishga imkon beradigan asl yozma yodgorlik bo'lib, "Русская Правда" tilida rasmiy uslubning o'ziga xos xususiyatlari bilan bog'liq bo'lgan so'zlarni ishlatish va nutqni tashkil qilishning o'ziga xos xususiyatlarini ajratib ko'rsatish mumkin. Murakkab jummalarning barcha turlaridan eng ko'p ishlatiladiganlari nisbiy jumlagacha ega bo'lgan tuzilmalardir (kasaba uyushmasi bilan - agar): "Русская Правда"da Qadimgi Rossiyada huquqiy munosabatlarning rivojlanishidan dalolat beruvchi atamalar ishlatilgan: *bosh (o'ldirilgan), muallim (qotil), mish-mish (guvoh), vira (jarima), olingan (mulk), tomir yig'lash (kelin uchun to'lov), kuna (pul)*<sup>131</sup>. Yuridik terminlar qadimgi hujjatlar tilining eng muhim leksik qatlamini anglatadi.

"Русская Правда"dan keyingi eng qadimiy hujjat: "*Buyuk gertsog Mstislav Vladimirovich va uning o'g'li Vsevolod 1130-ning diplomidir*". Ushbu "*Se az*" harfining *boshlang'ich formulasi ... ("Men shu yerdaman") qadimgi rus harflarining majburiy elementi (zaruriy) bo'ladi: "Buyuk knyaz Vsevolod Sankt-Jorjga (Yurev monastiri) Terpugskiy qabristoni Lyaxovichiga yer berdi va odamlar bilan, otlar, o'rmon va yon tomonlar bilan va qo'lga olish uchun xazinalar bilan ... (" h "Buyuk Dyuk Vsevolod Mstislavovich Yuriev monastiri diplomlari 1125-1137 yillar))"*<sup>132</sup> Harflar maxsus formulalar bilan yakunlandi, bu kim bo'lganligini ko'rsatadi. Bitimga guvoh bo'lgan va xatni o'z imzosi bilan tasdiqlagan.

Butrus kollejarining "Umumiy qoidalarida" berilgan hujjatlarning standartlashtirilgan tizimlari ro'yxatga olish me'yorlari, manzilni, unvonni nomlash va o'z-o'zini nomlashning yagona me'yorlari ko'rsatildi va shu tarzda adresatga murojaat qilishning etika normalari nazarda tutilgan hujjatlar shakllandi.

Aytish mumkinki, rasmiy muloqot tilining lug'ati tobora ko'proq so'zlashuvdan, jonli nutqdan uzoqlashmoqda, juda ko'p sonli xorijiy so'zlar (agriman, dipkorpus, diplomatik agent, diplomatik akt, diplomatik kur'er, konventsia, persona non grata va boshqalar) va terminlar o'zlashtirilmoqda.

XIX asrda, kodlangan adabiy tilning shakllanishi asosan yakunlangandan so'ng, uning funktsional aspektlari - uslublari faol shakllana boshladi. 1811 yildan boshlab, "Vazirliklarning umumiy tashkil etilishi" qabul qilinganidan so'ng, rasmiy uslubning o'ziga xos xususiyatlari faol shakllantirila boshlandi. Matnning rasmiy-mantiqiy tashkil etilishi, nutqning shaxsiy bo'lmagan xususiyati, nutqning nominal tabiati, morfologik va leksik yaxlitlik (nominativ va genetik holatlarning keng tarqalishi), standartlashtirish. Rasmiy uslubni isloh qilish natijasida (hujjatlarni yozish qoidalari) davlat ahamiyatiga ega bo'lgan vazifa deb tushuniladigan rasmiy uslubni isloh qilish zarurati paydo bo'ldi.

<sup>131</sup> А.Ф.Борунков /Россиядаги дипломатик протокол//

<sup>132</sup> Борунков А.Ф. / Россияда дипломатик протокол // Москва: Халқаро муносабатлар, 2000



Hujjatlarni tayyorlash, rasmiylashtirishda tilning barcha asosiy qonuniyatlari va qoidalarini ma'lum darajada bilish zarur, shuningdek, tilning imlo qoidalari, tinish belgilari va uslubiy qoidalar ham puxta egallangan bo'lishi kerak. Xususan, o'zbek hujjatchiligida bu borada jiddiy o'rganilishi, amaliy va nazariy tadqiq etilishi lozim bo'lgan ayrim o'rinlar bor. Ayniqsa, hujjat nomlarini o'zbek tilining o'z imkoniyatlari asosida shakllantira borish, hujjatchilikdagi so'z, so'z birliklari va iboralarning o'zbekcha muqobilini izlab topish va amaliyotga kiritish muhim vazifalardan sanaladi. Masalan, hozirda o'zbek hujjatchiligida "spravka" ma'nosida "ma'lumotnoma", "raport" o'rnida "bildirish", "instruktsiya" o'rnida "yo'riqnoma", "akt" o'rnida "dalolatnoma", "xarakteristika" ma'nosida "tavsifnoma", "vedomost" o'rnida "qaydnoma", "protokol" o'rnida "bayonnoma" kabi terminlar ishlatilmoqda. Albatta, bu holat mantiqan to'g'ridir.

Siyosiy, rasmiy-diplomatik nutq deganda xoqonlar, xonlar, sultonlar, davlat arboblarning el-ulusga qarata aytgan so'zlari, rasmiy murojaati, yorlig'i, hukumat idoralariga ko'rsatmalari, turli yurt egalari bilan o'zaro yozma muloqoti anglashiladi. Yurt, ulus egasining siyosiy, rasmiy nutqi ikki turli bo'ladi. Birinchisi, og'zaki nutq – xon va sultonlarning og'zaki buyruq va ko'rsatmalari, kishilar bilan bo'lgan rasmiy muloqoti. Yozma manbalarda bunga misollar ko'p. Jumladan, arab sayyohi va tarixchisi Ibn Battuta o'z «Sayohatnoma»sida Movarounnahr sultoni Alouddin Tarmashirin bilan bo'lgan tasodifiy uchrashuvi to'g'risida hikoya qila turib, shunday yozadi: *«Men u yerda o'rdi deb ataladigan qarorgohda bir necha kun turib qoldim. Bir kuni odatdagidek masjidga kirib bomdod namozini o'qidim. Namoz tugagach, kimdir menga sulton ham shu masjidda ekanligini aytdi. Men o'rnimdan turib, unga salom berish uchun yaqiniga bordim. SHayx Hasan va faqih Hisomuddin al-Yog'iy sultonga mening to'g'rimda, bu yerga bir necha kun muqaddam kelganligim haqida so'zlab berishdi. Sulton menga turkiy tilda murojaat qildi: Xušmisan, yaxšimisan? Qutluy olsun»* (Ibn Battuta 2012,3 70–371)<sup>133</sup>. Keltirilgan ushbu hikoyadagi Tarmashirin so'zlari xon nutqiga misol bo'la oladi. Ilk uchrashuvdagi xonning so'rashuvi rasmiy etiketni belgilaydi; xonlarning og'zaki nutqida ham bunga katta e'tibor qaratilgan.

Diplomatik hujjatlarning shakli, tashqi ko'rinishi qanchalik muhim bo'lmasin, diqqat-e'tibor asosiy qismga, uning mazmuniga qaratilmog'i shart. Fikrni aniq, to'g'ri, mantiqiy izchil, asosli hamda ikkinchi tomonning xususiyatlarini hisobga olgan holda bayon etishi zarur. Ushbu hujjatlarda noaniqlik, dalillarni noto'g'ri ko'rsatish bo'lmasligi lozim. Chunki uni keyin to'g'rilab yozish yoki alohida to'g'rilab ma'lumot berish mumkin emas.

Diplomatik yozishmalar tashqi ishlar vazirliklari tomonidan shu mamlakatning davlat tilida olib boirladi va biror xalqaro tildagi tarjimasini ilova qilinadi. Elchixonalar ham yozishmalarni o'z davlat tillarida yoki o'zlari turgan mamlakat tilida olib borishlari mumkin. Diplomatik hujjatlarda so'zga e'tibor juda kuchli bo'lmog'i kerak. Ular tili sodda, ravon bo'lib, ko'chma ma'nolardan xoli bo'lmog'i, so'z mazmun bilan

<sup>133</sup> «Жаҳон адабиёти» журналі, 2011 йил, 10-сон.



mutloq mos bo'lishi, undan boshqacha ma'no anglashilmasligi kerak. Agar so'z ma'nosida qandaydir ma'no nozikligi yoki mavhumlik bo'lsa, uni boshqa so'z bilan almashtirilgani ma'qul<sup>134</sup>.

Demak, diplomatik hujjatlar lisoniy jihatdan o'ziga xos leksik-uslubiy, morfologik va sintaktik xususiyatlarga ega.

Leksik-uslubiy jihatdan diplomatik yozishmalar o'z atamalar tizimiga, qoliplashgan turg'un birikmalariga, sinonim, antonimlar kabi turli ifoda vositalariga ega. Shuni alohida ta'kidlab o'tish kerakki, rasmiy ish uslubi hissiy bo'yoqdor so'zlardan xoli bo'lgani xolda diplomatik yozishmalar hissiy bo'yoqdor so'zlarga boyligi, maqtov so'zlariga egaligi bilan ajralib turadi. Maqtov so'zlari diplomatik yozishmalarining eng asosiy turi bo'lmish nota-bayonotlarning zaruriy qismlaridan biri hisoblanadi. Ularning oz-ko'p qo'llanilishiga qarab ushbu hujjatlar ma'lum bir turlarga ham ajratiladi. Chunonchi, notalarda "Janobi oliylari", "Hurmatli janob", "Sizga bo'lgan yuksak hurmatimga ishonch bildirgaysiz" kabi hurmat-e'zoz so'zlarining ko'p qo'llanilishi unga do'stonalik, oz qo'llanilishi esa rasmiy tus beradi.

Diplomatik yozishmalarda sinonimik qatorning ko'proq uslubiy neytral so'zlari emas, balki ijobiy hissiy bo'yoqli va kitobiy uslubga xos so'zlari ko'p qo'llaniladi. Chunonchi, *bildiraman* so'zi o'rnida *izhor etaman*, *vaqt* o'rnida *fursat*, bir marta o'rnida bir bora, mansab o'rnida lavozim, raxmat o'nida tashakur, xursand so'zi o'rnida mamnun so'zlari qo'llaniladi. Diplomatik protokolda (ayniqsa og'zaki nutqlarda) iboralar ko'chma ma'noda qo'llanuvchi turg'un so'z birikmalari, jumladan *bosh ustiga*, *boshimiz ko'kka yetdi*, *ko'nglingizni cho'ktirmang bir yoqadan bosh chiqarib*, *bir tanu bir jon bo'lib* iboralar, shuningdek, xalq maqollari, donolar bisotidan olingan aforizmlar keng qo'llaniladi. Bunday turg'un birikmalar nutqqa ko'tarinki ruh berishga, ta'sirchanlikni oshirishga xizmat qiladi. Qadimda iboralar diplomatik hujjatlarda ayniqsa ko'p qo'llanilar edi. Hozir ham ayrim rasmiy shaxsiy xatlarda tez-tez uchrab turadi.

Umuman olganda diplomatik hujjatlarda do'st qiladigan ham, dushman qiladigan ham so'zdir. "Aytilgan so'z-otilgan o'q" deydi xalqimiz. O'z o'rnida aytilgan yoki yozilgan so'z xalqlarni bir-biriga yaqinlashtiradi, ba'zi kelishmovchiliklarni bartaraf etishga yordam beradi. Aksincha, noto'g'ri yoki noo'rin aytilgan so'z esa salbiy oqibatlariga olib kelishi mumkin. Shuning uchun diplomatik yozishmalarda xalqimizning "Tilga ixtiyorsiz - elga e'tiborsiz", "So'zdan so'zning farqi bor, o'ttiz ikki naqli bor" kabi dono o'gitlarini hamisha yodda tutish kerak.

Yuqorida aytib o'tganimizdek, diplomatik yozishmalar alohida terminlar tizimiga ega. Ularning asosiy qismi xalqaro miqyosidagi termin bo'lgani uchun tarjimasiz qo'llaniladi. Masalan, *agriman* - elchilikka taklif etilgan shaxsning kelishiga beriladigan rozillik, *konfederatsiya*-muayyan maqsadlarda tuziladigan ittifoq, *assambleya* - xalqaro tashkilotlarning umumiy yig'ilishi, *pakt* - siyosiy aamiyatga ega bo'lgan xalqaro

<sup>134</sup> Муҳиддинова Х.С. Абдуллаева Н.А. / Расмий услубнинг дипломатик ёзишмалар тури // Ўқув қўлланма. Тошкент 1997 йил. 4-7 бетлар.



ahdnoma (shartnoma). *Kantsler* - Avstriya va Olmoniyada hukumat boshligi, viza-ruxsatnoma, *bill'* - qonun loyihasi kabi. Ayni paytda rus tilidan o'tgan va internatsional xarakterga ega bo'lmagan diplomatik terminlarning ko'pchiligi o'zbek tiliga o'girib ishlatilmoqda. Masalan: *договор* - *shartnoma*, *битим*, *анулирования* - *bekor qilish*, *соглашения* - *xalqaro bitim*, *заявление* - *bayonot*, *декларация* - *bayonnota* kabi. Shuni ham eslatib o'tish kerakki, bazi terminlarning qo'llanishida ikki xillik mavjud bo'lib, diplomatik terminlarda bunga yo'l qo'yish mutlaqo mumkin emas. Chunonchi, *nota* o'zbek tilida bayonot ham deb nomlanmoqda. Bizningcha, notaning xalqaro terminligini nazarda tutib hamda bayonotning har bir diplomatik hujjat - *заявления*ga to'g'ri kelishini hisobga olgan holda saqlab qolinishi to'g'ri bo'ladi.

Diplomatik terminlarning ko'pchiligi qoliplashgan nutqiy birikmalardan iborat bo'lib, ularni o'zbek tiliga tarjima qilishda kal'ka usulidan foydalanilmoqda. Jumladan, *безоговорочное исполнение* - *so'zsiz ijro etish*, *верительная грамота* - *ishonch yorlig'i*, *выбор гражданства* - *fuqarolikni tanlash*, *государственный секретар* - *davlat kotibi*, *всеобщая декларация прав человека* - *inson huquqlarining umumiy bayonnomasi*. Diplomatik yozishmalar har bir davlatda qadimiy ildizlarga egaligini hisobga olib, ba'zi terminlarda arxaik (eskirgan) so'zlardan foydalanish o'rinlidir. Chunonchi, *курьер* so'zi o'rnida *chopar*, *mansabdor* shaxs atamasi o'rnida mavkab so'zlarini qo'llash maqsadga muvofiq. Diplomatik terminlardan foydalanishda ushbu holatlarni ham nazarda tutish kerak bo'ladi.

### XULOSA

Diplomatiya - davlat hukumat boshliqlari va maxsus tashqi aloqa organlarining davlat tashqi siyosatining maqsad va vazifalarini, shuningdek, chet ellarda davlatning huquq va manfaatlarini ximoyalashni amalga oshirishga qaratilgan rasmiy faoliyati. Diplomatiya-tashqi siyosatning, davlat, xalqaro faoliyatining ajralmas qismidir. Diplomatiya bu davlatning harbiy kuch ishlatmasdan, o'zaro muloqot yo'li bilan tashqi siyosatni amalga oshirish vositasidir. Diplomatiya tushunchasi-muzokaralar olib borish san'ati degan ma'noni ham anglatadi. «Diplomatiya» so'zi grekcha «diploma» so'zidan kelib chiqqan bo'lib, tashqi munosabatlar to'g'risidagi fandir.

O'zbekiston mustaqillikka erishishi bilan mamlakatimiz uchun mutlaqo yangi soha-xalqaro munosabatlarning teng huquqli sub'ekti sifatida diplomatik faoliyat yuritish uchun zamin yaratildi. Dunyoning aksariyat davlatlari tomonidan tan olingan O'zbekiston o'z diplomatik faoliyatini bir necha yo'nalishlarda olib bora boshladi. «Mustaqillik va suverenitet barcha davlatlar bilan teng xuquqli va o'zaro manfaatli asosda munosabatlarni o'rnatish jahon hamjamiyatiga integratsiyalashuv imkoniyatini beradi», - degan edi I.A.Karimov (O'zbekiston Respublikasi birinchi prezidenti).

Istiqlol yillarida diplomatik faoliyatni amalga oshiruvchi organlar tizimi yaratildi. Diplomatik faoliyatga oid xalqaro huquqiy xujjatlarga qo'shilish, shuning barobarida diplomatik faoliyatni tartibga solib turuvchi ichki qonunchilik tizimi yaratildi.



### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Ўзбек тилининг изоҳли луғати. 1 т. Мағруфова З.М. таҳрири остида. М: Русский язык, 1981, 228-б.
2. Намраева Ҳ. / О‘zbek tilining o‘zlashma so‘zlar va o‘quv izohli lug‘ati // – Т. Yangi asr avlodi. 2009. – 119 б.
3. Муҳиддинова Х.С., Абдуллаева Н.А. // Расмий услубнинг дипломатик ёзишмалар тури / Ўқув қўлланма. Тошкент 1997 йил. 4-7 бетлар.
4. А.Ф.Борунков /Россиядаги дипломатик протокол
5. Борунков А.Ф. / Россияда дипломатик протокол // Москва: Халқаро муносабатлар, 2000
6. “Жаҳон адабиёти” журнали, 2011 йил, 10-сон.
7. Муҳиддинова Х.С. Абдуллаева Н.А. / Расмий услубнинг дипломатик ёзишмалар тури // Ўқув қўлланма. Тошкент 1997 йил. 4-7 бетлар.
8. K.J.Rahmonov XALQARO MUNOSABATLAR VA DIPLOMATIYA TARIXI FANINDAN MA‘RUZA MATNLARI Buxoro -2015